

Iymon duosi



10:00 / 15.12.2018 49843

Ey, farzand!

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Sevimli sahobalarim! Qiyomatga qadar keladigan ummatlarim! Tongda to'shagingizdan turar-turmas shu duoni o'qing:

«Subhanallohi va bihamdihi subhanallohil aziym».

O'sha kuni kechgacha qilgan gunohingizni Alloh kechiradi».

Bir boshqa hadisi shariflarida shunday deydilar:

«Kim shu duoni kunda o'n marta o'qisa, o'sha kishiga Alloh qirq ming savob ehson aylaydi».

«Ashhadu anla ilaha illallohu vahdahu la shariyka lahu. ilahan vahidan somadan lam yattaxiz sohibatan va la valadan. va lam yakul lahu KUFUVAN ahad».

Ey, farzand!

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

«Bir kishi bir joyda shu (quyidagi) duoni o'qisa, o'sha joydan turmay turib, shirk va birovning haqqidan tashqari barcha gunohlarini Alloh kechiradi».

Shirkning jazosi - jahannam. Birovning haqqi esa haqlarni rozi qilish bilan kechirmadi.

Duo budir:

«Subhanakallohumma va bihamdika. Ashhadu anla ilaha illa anta vahdaka. La shar'iyka laka va astag'firuka va atubu ilayka».

Abu Bakr Qittoniy hazratlari deydilar:

«Bir kecha Rasulullohni sallallohu alayhi vasallam tushimda ko'rdim. Bir necha savollar berdim. Va dedimki:

«Yo Rasululloh sallallohu alayhi vasallam! Menga shunday bir duo o'rgatingki, aytganimda qalbimni tirik topayin!»

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam marhamat etdilar:

«Har tong shu duoni o'qi:

Ya hayyu ya qayyumu. Ya badiyas samavati val arzi. Ya zal jalali val ikrom. ya la ilaha illa anta as'aluka an tuhyiya qolbiy binuri marifatika. Ya alloh! ya alloh! ya alloh!»

Ey, farzand!

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam har doim, hatto vafot etayotganlarida ham shu duoni o'qidilar:

«Subhanallohi va bi hamdihi astag'firulloha va atubu ilayh».